

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## INGLIZ TILIDA SO'Z YASALISH USULLARI (MORFOLOGIK USUL, SEMANTIK USUL, KOMPOZITSION USUL)

Yusupova Sabohat A'zamjonovna  
FarDU katta o'qituvchisi

Abdulaxatova Xurshidaxon  
FarDU ingliz tili lingvistika magistranti

Bozorboyeva Xusnidaxon Bahromjon qizi  
FarDu talabasi [abdulaxatovaxurshidaxon@gmail.com](mailto:abdulaxatovaxurshidaxon@gmail.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tilidagi so'z yasalihi va so'z yasalihi usullari haqida shuningdek grammatik va sintaktik qurilish haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Paradigmatik morfologiya, sintagmatik morfologiya, sintaksis, grammatika, morfema, leksema, lingvistik birlik va boshqalar

Ingliz tilida so'z yasalihi usullari (morfologik usul, semantik usul, kompozitsion usul, abbreviatura usuli).

Bizga ma'lumki "grammatika" deganda ushbu sohadagi tilshunoslarning fikr-mulohazalaridan kelib chiqqan holatda uni yozuv san'ati hisoblanib, M.V.Lomonosov ta'biri bilan aytganda esa majburiy san'atdir. Grammatika majburiy san'at ekan, u holda barcha so'z turkumlarining grammatik kategoriyalari va shakllaridan foydalaniladi, ya'ni grammatika shular asosida ish ko'radi. Leksik ma'no bo'lmasa-da, grammatik ma'no mavjud bo'ladi.[1].

Grammatika ikki asosiy bo'limdan ya'ni morfologiya va sintaksisdan iboratdir. Bu unsurlarning o'rganilish usuliga ko'ra (bunda paradigmatik va sintagmatik nazarda tutiladi), quyidagi 4 xil tasnifni ko'rish mumkin: [2.].

1. Paradigmatik morfologiya
2. Sintagmatik morfologiya
3. Paradigmatik sintaksis
4. Sintagmatik sintaksis

Bu o'rinda paradigmatik morfologiya, sintagmatik sintaksis izoh talab qilmaydi, lekin sintagmatik morfologiya deganda biz ot+ot, sifat+ot, fe'l+ravish tartibidagi



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

frazalar, paradigmatic sintaksis deganda esa ma'lum bir gapning variantlari nazarda tutiladi:

I speak English. I don't speak English. Do I speak English? I have spoken English. I haven't spoken English.

Morfologiya grekcha so'zdan olingan bo'lib, morphe – shakl va logos – ta'limot ma'nosini anglatadi va so'zlarning morfologik tuzilishini, grammatik shakllar yasashda morfemalarning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini, joylashish qonunlarini, paradigma yasovchi shakllarning o'zaro oppozitsiyalarini, so'z turkumlari va ularning ma'nosini o'rganadi. Yanadan aniq qilib aytganda, so'z haqidagi grammatik ta'limot, ya'ni til unsurlarining paradigmaticasini o'rganadigan bo'lildir.

Tilni unsurlarga ajratishning asosiy shartlaridan biri har bir unurning o'z birligiga ega bo'lishidir. Morfologiyaning birligi esa nutq faoliyatidagi eng kichik ma'no anglatuvchi unsurdir. Bu unurning nutqdagi ko'rinishi morf va tildagi ko'rinishi morfema deyiladi. Masalan, ingliz tilidagi fishers so'zi uchta ma'no anglatuvchi unsur, ya'ni fish - er - s dan tashkil topib, o'zbek tiliga baliqchilar deb tarjima qilinadi.

Morfema – so'z tarkibida qatnashadigan ma'noli eng kichik til birligidir.

Masalan: writers.

basic lexical meaning 2) noun forming suffix 3) plural forming suffix.

Odatda morfema ingliz tilida so'z (word), affiksial (bound) va erkin (free) morfemalarga ajratiladi. Lekin shuni qayd qilish kerakki, yuqoridagi misolimizda -er hamda -s morfemalari omonimdir. Shu jihatdan olganda morfemalarni o'zak, ya'ni nol (zero) morfema va omonim morfemalarga ham ajratiladi.

Fonema tilning eng kichik ma'nosiz birligidir (tale-table; bola-bolta). Morfologiyada morfemalar tizimining paradigmatic holati natijasida so'z turkumlarining grammatik kategoriyalari aniqlanadi.

Masalan, otlarning paradigmasini ko'radigan bo'lsak, uning grammatik kategoriyalaridan son va kelishik kategoriyalarini ko'rsatish mumkin.

So'z va morfema. Bizga ma'lumki, morfologiya grammatikaning bir qismi bo'lib, u so'z shakllaribilan shug'ullanadi. So'z sintaktik vazifa bajara oladigan morfologiyaning eng katta birligidir. So'z va morfema haqida gapiradigan bo'lsak, morfema eng kichik ma'no anglatuvchi bo'lakdir. Lekin, bu o'rinda ma'no deganda biz ko'proq leksik semantik ma'noni yemas, balki grammatik ma'noni tushunishimiz kerak.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Soʻz tilning mustaqillikka ega boʻlgan, ayrim maʼno, yemotsiyalarni bildiradigan, fonetik va grammatik jihatdan shakllangan, tugallikka ega boʻlgan birligidir. Soʻzning yaxlit strukturaga, ayrimlikka ega ekanligi, gapning biror boʻlagi boʻlib kelishi uning morfemadan farqqilishini koʻrsatib turadi.

Morfema, fonema va soʻzlar bir-biri bilan turli usullarda birikadi. Ularning bunday birikishi maʼlum lingvistik qonunlarga boʻysunadi. Til birliklarining katta yoki kichikligidan qatʼiy nazar ularning nutq jarayonidagi sintagmatik joylashish usuli, ishlatilish tartibi, yigʻindisi, yaʼni bir holatda ishlatiladigan elementning ikkinchi holat bilan aloqador boʻlishi distribusiyasi deyiladi. Distribusiyasi til iyerarxiyasining hamma yaruslari bilan aloqaga kirishadi.

Morfologik va sintaktik distribusiyasi tildagi eng kichik birlik (fonema) larning oʻzaro joylashuv munosabatlarini, fonologik distribusiyasi, morfema va soʻzlarning kontekstda joylashish xususiyatlarini oʻrganadi. Distributiv metodning morfologiyada qoʻllanilishi til sistemasini morfologik segmentlarga ajratish protsessi bilan bogʻliqdir.

Ikki lingvistik birlik (fonema, morfema) bir xil muhitda uchramasa, qoʻshimcha distribusiyasi hodisasi sodir boʻladi. Bu distribusiyasi fonologiyada allofonlarni, grammatikada esa allomorflarni aniqlash protsessi bilan aloqadordir. Masalan, ingliz tilida feʼlning oʻtgan zamon formasi –ed morfemasi yordamida yasaladi. –ed suffiksi oʻqilishining uch xil varianti bor: [t, d, id]. Jarangsiz undoshlardan soʻng [t] worked, talked, passed, [t] yoki [d] fonemasidan soʻng [id] wanted, heated, balded deb oʻqiladi. Boshqa hollarda [d] deb talaffuz etiladi; studied, occurred, told, etc. Ikki yoki undan ortiq lingvistik birlikning bir xil vaziyatda qoʻllanilib, turli maʼnoni ifodalashi kontrast distribusiyasi deyiladi. Kontrast distribusiyani aniqlashda ham avval fonologik va morfologik birliklar ajratilib, keyin ularning distributiv oʻrni belgilanadi. Kontrast distribusiyada turli morfemalar ishtirok etadi. Masalan, shaxs oti yasovchi –er morfemasi sifatdash formasini yasovchi –ing morfemasidan farq qilganligi uchun ular bir xil oʻzakka qoʻshilishidan qatʼiy nazar kontrast distribusiyasi deb ataladi; She is dancing. She is a dancer. Oʻzbek tilida esa, U teatrga ketdi va U teatrda jumalaridagi –ga, -da morflari kontrast distribusiyaga misol boʻla oladi.

Morfologiya bilan sintaksisni bir-biridan farqlash soʻz chegaralarini qanday tushunish bilan chambarchas bogʻliq. Umuman olganda, morfologiya grammatikaning bir boʻlagi boʻlib, soʻz shakllari bilan shugʻullanadi. Sintaksis esa grammatikaning bir qismi boʻlib, soʻz birikmalari frazalar va gap bilan shugʻullanadi. Masalan, indestructibility soʻzi uzun boʻlsa ham morfologiyaga



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> December, 2022

ISSN: XXXX-XXXX

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

tegishli, came here esa qisqa bo'lsa ham fraza va sintaksisga tegishlidir. Has been found? Frazasi esa aniq ko'rinib turibdi, fraza va sintaksisga tegishli deymiz, ammo shu bilan birgalikda bu ibora find fe'lining shakli va morfologiyaga tegishli deyishimiz ham mumkin-ku.

## Adabiyotlar:

1. Bektoshev Otabek Qodiraliyevich. Ingliz tili nazariy grammatikasi. O'quv qo'llanma. Bo'ronov J.B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent. 1973. -616.
2. Bektoshev Otabek Qodiraliyevich. Ingliz tili nazariy grammatikasi. O'quv qo'llanma. 17-B.
3. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ХУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШ. Science and innovation, 1(B5), 350-352.
4. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARNING GRAMMATIK IFODALANISHI. PEDAGOGS jurnali, 20(2), 65-68.
5. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
6. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. Science and innovation, 1 (B7), 736-739.
7. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. Science and innovation, 1 (B6), 540-543.

